



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil
MAXSUS SON

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti
sifatida ommaviy axborot vositalarining
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**
The new constitution of Uzbekistan:
A catalyst for democratic advancement

UDC: 347.2(045)(571.1)

YANGILANGAN BOSH QOMUSIMIZDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI ENG OLIY QADRIYAT SIFATIDA

Azimov Hakimali Imomovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrası professori
ORCID: 0000-0001-5331-0588
e-mail: khakimaliazimov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangilangan Konstitutsiyamizning qabul qilinishi mamlakatimiz tarixida, xalqimiz hayotida ahamiyatga molik voqea bo'lganligiga atroflicha e'tibor qaratilgan. Inson qadrini ulug'lash va uni yangi bosqichga olib chiqish, Yangi O'zbekistonni barpo etish, shuningdek, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug'vor va buyuk ishlar uchun xalqimizga har tomonlama munosib bo'lgan yangi Konstitutsiyamiz barchamizga faxr va iftixor bag'ishlaydi. Insonlarning hayotdan rozi bo'lib, ertangi kunga bo'lgan ishonchining mustahkam qaror topishi inson qadr-qimmatini ulug'laydigan qonunlarning jamiyatda mavjudligi va uning amal qilishi bilan xarakterlanadi. Shuni alohida qayd etish joizki, yangi qabul qilingan Bosh Qomusimiz huquqiy demokratik davlat talablari va mezonlari, shuningdek, xalqaro andozalarga to'la-to'kis mos keladi va bu xususdagi fikr-mulohazalar manba va materiallar asosida yoritilgan. Yangilangan Konstitutsiyamizda huquqiy va siyosiy tafakkurning eng yuksak yutuqlari, xalqimizning boy tarixi, madaniyati hamda milliy urf-odatlar, an'analari e'tirof etilganligi ahamiyatga molikdir. Bu haqda ham bir qator materiallar jalb etilgan.

Kalit so'zlar: yangilangan Konstitutsiya, davlat boshqaruvi, referendum, "ijtimoiy davlat", inson qadr-qimmat, milliy davlatchiligimiz, xalqaro huquq, advokatura instituti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, demokratik huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati.

ПРАВА ЧЕЛОВЕКА И ЕГО СВОБОДА КАК ВЫСШИЕ ЦЕННОСТИ В ОБНОВЛЁННОЙ КОНСТИТУЦИИ

Азимов Хакимали Имомович,
профессор кафедры «Общеобразовательные науки и культура»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье акцентируется внимание на том, что принятие обновлённой Конституции стало важным событием в истории нашей страны и жизни нашего народа. Новая Конституция, во всех отношениях достойная нашего народа, воздаёт гордость и честь всем нам за славные и великие дела по прославлению человеческого достоинства и выведению его на новый уровень, становлению нашего Нового Узбекистана, а также созданию основ Третьего Ренессанса. Это выражается в том, что люди удовлетворены жизнью и твёрдо верят в будущее, существование законов, уважающих достоинство каждого человека в обществе, их реализацию. Стоит отметить, что вновь принятый Основной Закон полностью соответствует требованиям и критериям правового демократического государства, а также международным стандартам, и мнения по этому поводу освещены в статье на основе источников и материалов. В обновлённой Конституции признаны высшие достижения правовой и политической мысли, отражены богатая история, культура, национальные обычаи и традиции нашего народа. Об этом обобщено множество материалов.

Ключевые слова: обновлённая Конституция, государственное управление, референдум, «социальное государство», человеческое достоинство, национальная государственность, международное право, институт адвокатуры, Организация Объединённых Наций, Всеобщая декларация прав человека, демократическое правовое государство, сильное гражданское общество.

HUMAN RIGHTS AND FREEDOM AS THE HIGHEST VALUES IN THE UPDATED CONSTITUTION

Azimov Khakimali Imomovich,

Professor of the Department of General Education Sciences and Culture,
Tashkent State University of Law

Abstract. *This article focuses on the fact that the adoption of the updated Constitution has become an important event in the history of our country and in the life of our people. Our new Constitution, worthy of our people in all respects, gives pride and honor to all of us for the glorious and great deeds of glorifying human dignity and taking it to a new level, the establishment of our New Uzbekistan, as well as the creation of the foundations of the Third Renaissance. It is characterized by people being satisfied with life and firmly believing in the future, the existence of laws respecting human dignity in society, and their implementation. It is worth noting that our newly adopted Constitution fully complies with the requirements and criteria of a legal democratic state, as well as international standards, and opinions on this matter are highlighted based on sources and materials. Our updated Constitution recognizes the highest achievements of legal and political thought and the rich history, culture, national customs, and traditions of our people. Many materials have been collected about this.*

Keywords: *updated Constitution, public administration, referendum, "Social State", human dignity, national statehood, international law, institution of the legal profession, United Nations, Universal Declaration of Human Rights, democratic legal state, strong civil society.*

Xalq farovonligi oshgan sari o'z-o'zidan talab va ehtiyojlarning ham ortib borishi tabiiydir. Bundan shu narsani anglash mumkinki, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish uchun davlat va jamiyat hayotida tub islohotlarni amalga oshirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Davlat boshqaruvida ham, qonunchilik sohasida ham muhim o'zgarishlarni ro'yobga chiqarish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. **"Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat"** degan ustuvor g'oya 2023-yilning 30-aprelida o'tkazilgan referendum asosida qabul qilingan yangi Konstitutsiyaga singdirildi.

Yangi O'zbekistonni "ijtimoiy davlat" tamoyili asosida barpo etish yangilangan Konstitutsiyada [1] o'z aksini topdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini to'la ro'yob-

ga chiqarish uchun teng imkoniyat va munosib hayot kechirishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, kambag'allikni qisqartirish, umumun olganda, inson qadr-qimmatini yuksaltirish va uni yangi bosqichga olib chiqish demakdir.

Bu muqqadas Vatanda, eng avvalo, inson qadrini yuksaltirishga ustuvor ahamiyat qaratilganligi ham bejiz emas. Chunki inson qadri har narsadan ulug'dir. Shu nuqtayi nazardan olib qarajak, Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining birinchi yo'nalishi "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" deb nomlandi. Mazkur yo'nalishdagi vazifalarni amalga oshirishda respublikamizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaroning, butun

xalqimizning farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan "Inson qadri uchun" g'oyasini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilganligi, shu asosda mahalliy boshqaruv organlarining joylarda muammolarni hal etishdagi roli va mas'uliyatini yanada kuchaytirish maqsadida kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o'tkazilishining ko'zda tutilganligi e'tiborga molikdir.

Darhaqiqat, inson qadr-qimmati ulug'langan yurtning kelajagi porloq bo'ladi. Zero, yangilangan Konstitutsiyamizda inson qadr-qimmati va uning haq-huquqlari to'la o'z aksini topganligi bilan ahamiyatga molikdir. Konstitutsiyamizning 13-moddasida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi. Ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi" [1, 6]. Shuni aytish kerakki, Bosh qomusimiz xalqaro me'yorlarning talab darajasiga mos kelishi va unga javob berishi bilan ham ahamiyatlidir.

Xalqaro huquqning milliy huquqiy tizimlarga ta'siri haqida shuni aytish kerakki, ko'plab konstitutsiyalarda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalari va prinsiplari milliy konstitutsiyaviy huquqning tarkibiy qismiga kiradi. Ular bir-biriga zid kelsa, xalqaro huquqiy normalar ustun kelishi yozib qo'yilgan. Xalqaro huquq prinsiplari va normalarining majmui yangilangan Konstitutsiyamizga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlariga oid boshqa xalqaro bitimlardan olib singdirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Darhaqiqat, bosh qomusimizning 19-moddasida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi.

Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart" [1, 9].

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, 2020-yilda mamlakatimizning milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy organlaridan biri bo'lgan Inson huquqlari kengashiga a'zo etib saylanganligi tarixiy ahamiyatga molik voqea bo'ldi. Darhaqiqat, shuni mamnuniyat bilan qayd etish kerakki, 2020-yilning 13-oktabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga ko'pchilik ovoz bilan uch yillik muddatga saylanishi mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan g'oyat keng ko'lamdagi ishlarning samarasidan yaqqol dalolatdir.

Ma'lumot o'rnida shuni aytish joizki, quyidagi 15 ta davlat 2021-yil 1-yanvardan boshlab uch yillik muddatga BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoligiga saylangan: Boliviya, Xitoy, Kot-d'Ivuar, Gabon, Kuba, Fransiya, Malavi, Meksika, Nepal, Pokiston, Rossiya, Senegal, Ukraina, O'zbekiston, Buyuk Britaniya. Mazkur davlatlar qatorida O'zbekistonning ham e'tirof etilishi qalbimizda g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasi organi hisoblangan Inson huquqlari bo'yicha kengashga 47 ta davlat a'zo. Kengash a'zolari uch yillik muddatga yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Ajdodlarimizning davlatchilikni mustahkamlash yo'lidagi g'oya va fikrlari, amalga oshirgan ulkan ishlari, hayotiy tajribalari yangilangan asosiy qonunimizning mezon qilib olinganligi e'tiborga loyiqdir. Buyuk Sohibqiron Amir Temurning "Temur tuzuklari"

da davlatni boshqarishga oid muhim tartib-qoidalar shunday e'tirof etilgan: "Davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra tuzukka taynib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda, xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadi" [22, 63]. Bu fikrlar Amir Temur davlati boshqaruv tizimining asosiy g'oyasi bo'lib xizmat qilgan va uning hozirgi kundagi ahamiyati ham beqiyosdir. Zero, davlat boshqaruvida qonun, adolat ustuvor vazifa bo'lib, xalqning orzu-umidlari ro'yobga chiqishida muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

2023-yilning 8-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi Renessansni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi" deb nomlangan ma'ruzasida ta'kidlaganidek: "Eng muhimi, "Qonun – muqaddas, har qanday holatda ham adolatni qaror toptirish shart!" degan qarash jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, mansabdorlar uchun hayot qoidasiga aylanishi kerak. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish uchun sudlarning odil va mustaqil ish yuritishini, albatta, amalda ta'minlashimiz zarur. Shu maqsadda Asosiy Qonunimizda hech kim sud qarorisiz 48 soatdan ortiq ushlab turilishi mumkin emasligi belgilandi. Erkinlikni cheklashga faqat sud qarori asosida yo'l qo'yilishi haqidagi qoida mustahkamlandi. Ayblanuvchiga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, ya'ni "sukut saqlash" huquqi birinchi marta alohida belgilab qo'yildi. Advokatlar maqomi oshirilib, ularning tergovchi va prokuror bilan teng va-kolatga ega ekani qayd etildi" [9].

Darhaqiqat, yangilangan Konstitutsiyamizda advokatura faoliyati bilan bog'liq masalalarning 141-142-moddalarda o'z aksini topganligi inson huquqlarini ta'minlash va uni mustahkamlashga qaratilgan muhim o'zgarishlar sirasiga kiradi. "Jismoniy va yu-

ridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi. Advokaturani tashkil etish va uning faoliyati tartibi qonun bilan belgilanadi" (141-modda). "Advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda, uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi. Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi. Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi" (142-modda) [1, 71].

Advokatura faoliyatini qonuniylik, mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish prinsiplari asosida tashkil etishning belgilanishi inson huquqlarini ta'minlash borasidagi amaliy harakatlarning samarasidan dalolatdir. Advokatga barcha shart-sharoitlar qonun doirasida mustahkamlandi. Eng muhimi, endilikda advokat va uning faoliyati butunlay davlat himoyasida bo'ladi.

Mamlakatimizda inson huquqlariga oid xalqaro huquqiy hujjatlarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinayotganligi o'zining ijobiy samarasini bermiqda. Eng muhimi, inson huquq va erkinliklarini qonuniy himoya qilish borasida O'zbekiston olib borayotgan ichki va tashqi siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotganligi respublikamizda amalga oshirilayotgan insonparvarlik siyosatining yorqin isbotidir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlari va uni himoya qilishga doir xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, BMT tomonidan ishlab chiqilgan va 1948-yilda qabul qilingan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qo'shilgan birinchi xalqaro huquqiy hujjat hisoblanadi. Demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyat qurishni o'z oldiga buyuk maqsad qilib olgan

O'zbekiston shijoat bilan oldinga intilmoqda. Inson huquqlari va manfaatlarining huquqiy himoyasi davlatning bosh vazifasi etib belgilanganligi xalqimiz xohish-irodasini ro'yobga chiqarish yo'lidagi sa'y-harakatlardan dalolatdir.

Shuni qayd etish kerakki, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 70 dan ortiq asosiy hujjatga qo'shilgan, BMT tomonidan mazkur sohada qabul qilingan 10 dan ortiq asosiy xalqaro shartnoma ishtirokchisiga aylangan [12, 13].

Xulosa qilib aytganda, inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa umum e'tirof etilgan daxlsiz huquqlari yangilangan Konstitutsiyamizda o'z aksini topganligi bilan ahamiyatlidir. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-dekabrida Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, **“Hech kimning unutishga haqqi yo'q – qonun talablari va inson huquqlari – biz uchun oliy qadriyat. Shu bois qanchalik qiyin bo'lmasin, tanlagan yo'limizdan hech qachon ortga qaytmaymiz. Ko'zlagan marralarimizga, albatta, yetamiz. Bu yo'lda niyati ulug', qalbi pok, mehnatkash**

xalqimizga tayanamiz. Bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilsak, men ishonaman, el-yurtimiz intilayotgan Yangi O'zbekistonni, albatta, barchamiz birgalikda bunyod etamiz” [8].

Inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning konstitutsiyaviy kafolatlari jamiyatni yangilash va mamlakatni modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlarni yanada jadal-lashtirish va takomillashtirish ishlarining muhim asosi bo'lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, qonun ustuvorligi barcha fuqarolar va mansabdor shaxslarga tegishli bo'lib, jamiyatning taraqqiy etib borishi va yuksalishida o'ta muhim vazifa hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, yangilangan Konstitutsiyamiz mustaqillik g'oyasi bilan, xalqimiz xohish-irodasi bilan sug'orilgan bo'lib, jahondagi yetakchi davlatlarning konstitutsiyaviy tajribalariga butunlay mos keladi. Referendum asosida qabul qilingan yangi Konstitutsiya Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ko'zlagan ezgu maqsad-muddaolarimizga erishish uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilishi, shak-shubhasizdir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Kuch adolatda”. 2020-yil 25-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. “Xalq so'zi”. 2020-yil 24-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 10-noyabrda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammitidagi nutqi. “Xalq so'zi”. 2020-yil 11-noyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida MDH davlat rahbarlari kengashining videoanjuman shaklidagi majlisida so'zlagan nutqi. “Xalq so'zi”. 2020-yil 19-dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Yangi O'zbekiston”. 2020-yil 30-dekabr.
6. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining O'zbekiston Respublikasi saylangan Prezidentining lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi nutqi. 2021-yil 6-noyabr.
7. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2022-yil 31-avgust. <https://daryo.uz/k/2022/09/01/shavkat->

mirziyoyevning-ozbekiston-mustaqilligining-31-yilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi/.

8. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr.

9. Mirziyoyev Sh.M. "Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi Renessansni barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi". 2023-yil 8-may.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston mustaqilligining 32 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2023-yil 31-avgust.

11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.

12. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 27-avgustdagi "Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri).

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 10-dekabrda "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-aprelda "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi". 2020-yil 30-aprel.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2023-yil 25-yanvar.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni. 2023-yil 28-fevral.

20. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni". 2023-yil 1-may.

21. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2023-yil 8-may.

22. Temur tuzuklari. – T.: Sharq, 2005. – B. 63.

23. Mirakulov M. Saylov kodeksi – demokratiya ifodasi. Huquq, 2019-yil 18-iyul.

24. Nosirhodjaeva, G. (2017). "The historical-philosophical heritage and the methodological problems of the history of science". *Review of law sciences*: Vol. 1: Iss. 2 , Article 4. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol1/iss2/4

25. Oblomuradova, X.N. (2018). "A state with healthy children is evident to become powerful". *Review of law sciences*: Vol. 2: Iss. 1 , Article 31. https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol2/iss1/31

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ergashev Ikrom

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

Mas'ul muharrir: N. Ramazonov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

Musahhih: M. Sharifova

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Veb-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.